

## ARAB TILI O'RGANUVCHILARIDA LEKSIK KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA TEKSHIRISHGA QARATILGAN METODLAR

**Madina Jamshidbek qizi Abrorova**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

[m.abrorova0729@gmail.com](mailto:m.abrorova0729@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet tili, xususan, arab tili o'rganuvchilariga yangi leksik materialni o'rgatish bosqichlari va bu jarayonda qo'llaniladigan metodlar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** leksika, leksik birlik, lug'at boyligi, leksik ko'nikma, leksik material, metod, vosita til, kontekst, leksik mashq, o'yin.

### METHODS OF FORMING AND TESTING LEXICAL SKILLS OF ARABIC LEARNERS

#### ABSTRACT

The article discusses the stages of teaching new lexical material to learners of a foreign language, especially Arabic, and the methods used in this process.

**Keywords:** vocabulary, lexical unit, lexical skill, lexical material, method, cross-language, context, lexical exercise, game.

#### KIRISH

Ma'lumki, istalgan tilni o'rganish jarayonida shu tilning lug'at boyligini o'rganish va egallash eng muhim jarayon hisoblanadi. Negaki, biror tilda fikr bildirish yoxud shu tildagi ma'lumotlarni tushunish o'z-o'zidan tildagi leksik birliklarni bilishni taqozo etadi. Til o'rganuvchilarida leksik ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan samarali metodlar majmuasini tuzish va amalga tatbiq etish masalasi uzoq yillardan buyon pedagogika va metodika sohasi vakillarini qiziqtirib kelmoqda.

"Leksik ko'nikma" atamasi metodist olim S.F.Shatilov bergan ta'rifda o'z mazmunini aniq namoyon qiladi. Olimning fikricha, leksik ko'nikma ikki qismdan iborat metodik tushuncha bo'lib, nutqda so'zni qo'llash va nutq jarayonida so'z yasash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek,



soʻzni tahlil etish, soʻz birikmalarini tuzish kabilar ham shu tushuncha zamirida yotadi.

## ASOSIY QISM

Leksik materialni, aniqrogʻi, tildagi muayyan soʻzlarni oʻrgatish 3 bosqichni oʻz ichiga oladi:

1. Leksikaning taqdimoti.
2. Leksika mashqlari.
3. Leksikaning qoʻllanilishi.

**Leksikaning taqdimoti.** Bu bosqich yangi soʻzning shakli va maʼnosini oʻquvchilarga tanishtirishdan iborat. Soʻzlarning maʼnosini taqdim etish oʻz navbatida ikki usulda amalga oshirilishi mumkin: tarjima vositasida yoki tarjimasiz. Shu oʻrinda chet tilini oʻrgatishda vosita tildan foydalanish muammosi yuzaga chiqadi. Bir guruh olimlar yangi soʻzlarni oʻrgatishda vosita til (koʻp hollarda oʻqituvchi va oʻquvchilarning ona tili)dan foydalanishni qatʼiyan rad etadilar. Xususan, F.Guen, M.Berlits kabi metodist olimlar chet tilini oʻrganish va oʻrgatish jarayonida ona tili yoki boshqa vosita til ishtirok etmasligi kerak, deb hisoblaydilar. Yangi soʻzni tarjimasiz usul bilan oʻrgatishda turli metodlardan foydalanish mumkin.

- ***Buyum yoki suratlar orqali oʻrgatish.***

Bunda oʻquvchilarning vizual xotirasi ishga tushadi hamda soʻzlarni tushunish va eslab qolish imkoniyati ortadi.

- ***Harakat namoyishi orqali oʻrgatish.***

Bu metod asosan ish-harakatni bildiruvchi feʼllarda qoʻl keladi. Bunda oʻqituvchi muayyan xatti-harakatni oʻzida koʻrsatib berishi lozim. Shuningdek, oʻquvchilar ham soʻzni talaffuz qilish asnosida mazkur harakatni bajarib koʻrishlari mumkin.

- ***Mimika va imo-ishoralar orqali oʻrgatish.***

“Xursand”, “xafa” kabi sifatlar va “yigʻlamoq”, “baqirmoq”, “kulmoq” kabi holatlarni ifodalovchi feʼllarni oʻrgatishda ushbu metoddan foydalanish samarali natija beradi. Oʻquvchilardan shu holatlarni oʻzlarida namoyish etib berishni talab qilish ham mumkin. Arab tilidagi soʻzlarni mazkur usulda oʻrgatishda jins va son kategoriyalarini ham tatbiq etish imkoniyati mavjud. Masalan, مسرور "xursand" soʻzini oʻrgatish va mashq qildirish jarayonida oʻgʻil bola oʻquvchini doskaga chiqarib مسرور , qiz bolani chiqarib مسرورة , ikki oʻquvchiga ishora qilib, مسروران va h.k sifatida oʻrgatish maqsadga muvofiq.

Til hodisalarini ko'rgazmalilik, ya'ni yuqorida ko'rsatilgan usullar yordamida o'rgatish bir necha olimlar, jumladan, M.Berlitsning metodik mulohazalaridan ham o'rin olgan.

• ***Sinonim va antonimlar orqali yangi so'zlarning ma'nosini ochib berish.***

Mazkur metod bilim darajasi yuqori o'quvchilar bilan birgalikda til o'rganishga yaqinda kirishgan o'quvchilarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, صغير "kichik" so'zini o'quvchilarning lug'at boyligida mavjud كبير "katta" so'zining antonimi, aksi sifatida tanishtirish mumkin. Aksar hollarda zid ma'noli sifat va fe'llarni birgalikda o'qitish ijobiy natija beradi.

طويل × قصير  
قبل × بعد  
فرح × حزن

Shuningdek, yangi so'zni o'rgatishda uning ma'nodoshlarini ham sanab o'tish mumkin.

Misol uchun, عاد qaytmoq so'zini رجع fe'lining sinonimi sifatida tanishtirish mumkin. Birgina talab qilinadigan narsa shuki, izohlash uchun taqdim etiladigan ma'nodosh so'zlar o'quvchilarga notanish bo'lmasligi lozim.

الفرح = السرور  
الحزن = الأسى

Mazkur metod bir qator olimlar, jumladan, M.Valterning metodologik qarashlarida o'z aksini topgan.

• ***Uyadosh so'zlar orqali o'rgatish.***

Masalan, الفواكه mevalar so'zini tanishtirishda o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan meva nomlarini sanash (مشمش، عنب، تفاح) va bularning bari الفواكه guruhiga kirishini ta'kidlash kifoya. Bu usul "kiyim-kechaklar", "sabzavotlar", "idish-tovoqlar", "o'quv qurollari" kabi jamlovchi so'zlarni o'rgatishda qo'l keladi. Tushuntirish jarayonida klaster metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

• ***So'z ma'nosini kichik hikoya orqali ochib berish.***

Misol uchun, اشترى "sotib olmoq" so'zini o'rgatish jarayonida bir qahramonning bozorga borishi va u yerdan mahsulotlarni tanlashi va pul berishi, shu orqali uning sotib olish jarayonini amalga oshirganini tushuntirish mumkin.

Mazkur metod asosan o'rta va yuqori darajadagi til o'rganuvchilariga nisbatan tatbiq etiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan metodlar asosan so'zning mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan usullar bo'lib, ularni tatbiq etish jarayoni so'zlarning talaffuzini o'rgatish bilan teng holatda

olib borilishi zarur. Mazkur metodlarni qo'llash jarayonida barcha analizatorlar (ko'rish, eshitish, nutq, harakat)ning jalb etilishi samarali natija beradi.

Biroq yangi so'zlarni tarjimasiz usulda o'rgatish aksar hollarda ko'p vaqt talab qiladi. Shuningdek, mavhum tushunchalarni ko'rgazmali usulda taqdim etish imkoniyati o'ta cheklangan. Shu sababli yangi so'zlarning ma'nolarini izohlashda vosita tilni qo'llash, ya'ni tarjima usulidan foydalanish ham ijobiy samara berishi mumkin. Metodist olim H.Palmer so'zlarning ma'nosini ochishda ko'rgazmalilik, kontekstdan foydalanish kabilardan tashqari tarjimani qo'llashni ham tavsiya etadi. Agarda yangi so'zning vosita tildagi ayni muqobili topilmasa, izohli tarjima beriladi.

**Leksika mashqlari.** Bu bosqich til materialini mustahkamlash davri bo'lib, tanishilgan yangi so'zlar takrorlanadi va nutq jarayonida qo'llashga qadam qo'yiladi. Leksik ko'nikmalarni shakllantirishda mazkur bosqich muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashqlarning asosiy turlari quyidagilardir:

1) lug'at boyligini o'zlashtirish, lug'at tarkibini kengaytirish va ularni fahmlash orqali bilib olish ko'nikmalarini hosil qiladigan mashqlar;

2) retseptiv (tinglab va o'qib tushunish) va reproduktiv (gapirish va qisman yozuv) leksik mashqlar;

3) leksik birlikning har xil turlari (so'z va so'z birikmalari) va ishlatilish o'rinlarini o'rgatish mashqlari.

- So'z, so'z birikmasi va gaplarni o'qituvchi ortidan ovoz chiqarib takrorlash;

- yangi o'rganilgan so'zlarni matndan topish va tarjimasini aytish;

- chet tilida aytilgan harakat yoki holatni namoyish etib berish;

- so'z ishtirokida sodda birikmalar tuzish;

- audiomatnda so'zlar ifodalagan narsalarni yoki rasmlarni tinglangan tartibda joylashtirish kabilar ilk mashq jarayonlarida amalga oshirilishi mumkin.

Amaliyot va takrorlash bosqichlarida quyidagi mashqlarni amalda qo'llash lozim:

• Ona tilida ifodalangan so'zni chet tilidagi matndan topish;

• Matn yoki gaplardagi bo'sh joylarni tegishli so'zlar bilan to'ldirish;

• So'z ishtirokida turli birikmalar tuzish;

• Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol tuzish;

• Qavs ichidagi so'zlarning mosini qo'yib, gaplarni ko'chirish;

• Bo'sh joylarni qavs ichida berilgan so'zlarning sinonimi yoki antonimi bilan to'ldirish;

• Berilgan so'zlar orasidan ma'no jihatdan boshqacha bo'lgan so'zni chiqarish;

- Soʻzlar ishtirokida ogʻzaki va yozma gaplar tuzish.

M.Valter soʻz boyligini mustahkamlashda asosiy eʼtiborni mashqlardagi soʻzlarni guruhlashtirishga qaratadi: bir oʻzakli soʻzlarni tanlash, mavzuga doir soʻzlarni ajratish, antonim va sinonim soʻzlarni topish kabilar. Shuningdek, u mashqlarni oʻyin tarzida olib borishni, oʻquvchilar uchun taʼlim jarayonini qiziqarli mashgʻulotga aylantirish zarurligini taʼkidlaydi.

Leksikani amaliyotga joriy qilish, takrorlash va tekshirishga oid turli mashqlarni oʻyinlar koʻrinishida oʻtkazish mumkin:

1. **“Kim koʻp soʻz yasaydi?” oʻyini.** Bunda oʻquvchilarga harflar tasviri tushirilgan kartochkalar toʻplami taqdim etiladi. Oʻquvchilardan harflar ishtirokida turli soʻzlarni yasashlari va ularni izohlab berish talab etiladi. Ushbu oʻyinni arab tilini oʻrgatish jarayoniga tatbiq qilinganda, harflarning soʻz boshi, soʻz oʻrtasi va soʻz oxiridagi koʻrinishlarining tasviri alohida kartochkalarga tushirilishi maqsadga muvofiq. Chunki oʻrganuvchi bu orqali nafaqat soʻz va uning maʼnosi, balki grafik koʻrinishini ham takrorlab, mustahkamlab oladi.

Mazkur oʻyin yangi soʻzlarni ilk mashq qildirish vaqtida, aytilgan soʻzni kartochkalar orqali yasab berish usulida ham tatbiq etilishi mumkin.

2. **“Issiq oʻrindi” oʻyini.** Bir oʻquvchi doskaga chiqib orqa tarafi bilan stulga oʻtiradi. Muallim bu vaqtda guruhdagi boshqa oʻquvchilarga istalgan soʻzni yozib koʻrsatadi. Soʻzni tushungan oʻquvchilar orqamachiq oʻtirgan sheriklariga shu soʻzni tushuntirib berishlari lozim. 5 ta izohdan soʻng doskadagi oʻquvchi soʻzni topa olmasa, uning oʻrindigʻi “isib ketadi” va oʻyinda magʻlub boʻladi.

Masalan, oʻqituvchi دقيق (un) soʻzini koʻrsatsa, oʻquvchilar quyidagi izohlar bilan sheriklariga soʻzni tushuntirishlari mumkin.

الطالب الأول : لونه أبيض  
الطالب الثاني: نشتره من السوق أو المتجر  
الطالب الثالث: يصنع منه الخبز  
الطالب الرابع: نضيف إليه الماء لنصنع العجين

“Birinchii talaba: Uning rangi oq.

Ikkinchi talaba: Uni bozor yoki doʻkondan sotib olamiz.

Uchinchi talaba: Undan non tayyorlanadi.

Toʻrtinchi talaba: Uni suv bilan qoʻshib, xamir qoramiz”.

Leksik mashqlarni bajarish jarayonida soʻzning turli nutq namunalarida ishlatilishiga imkon yaratilishi juda zarur. Negaki,

leksik ko‘nikmani shakllantirishda uning kontekstda ro‘yobga chiqarilishi kutilgan natija garovidir. Faqatgina yakka so‘z va uning tarjimai ustida ishlash so‘zni "bilish" demakdir, "egallash" emas.

**Leksikaning qo‘llanilishi.** Oddiy “bilish” deganda, so‘z ma‘nosini yodda saqlash yoki shaklini tanib olish holati ko‘zda tutiladi. “Egallash” esa ko‘nikma darajasida bilish demakdir. Leksikani egallaganlik darajasi so‘zlarni nutqda erkin qo‘llay bilish bilan o‘lchanadi. Til o‘rganuvchisi istalgan so‘zni bamaylixotir nutqda ishlata olsa, so‘zning latent davri (esda saqlash muddati) ta‘minlangan va u puxta o‘zlashtirilgan hisoblanadi. Mashq qilish bosqichidan leksikaning qo‘llanilishi bosqichiga qadam qo‘yilar ekan, fikr bayon qilishda sodir bo‘ladigan leksika tanlovida ong ishtiroki pasayadi, ya‘ni o‘quvchi o‘z fikrini ifodalovchi so‘zlar ustida uzoq o‘ylanmaydi.

Leksika bilan tanishish va mashq qilish bosqichlarida leksik birlik ustida ishlash birlamchi edi. Biroq qo‘llanilish bosqichida nutq birlamchi o‘ringa chiqadi va leksika vosita sifatida nutqiy xizmat qiladi.

Leksikaning qo‘llanilishi bosqichida fikrni bayon qilishga doir bir qator mashqlarni o‘tkazish mumkin:

- Harakat, hodisa va narsani sharhlab berish;
- Yangi so‘zlarni qo‘llab, rasmni tasvirlash. (Rasm o‘rganilgan mavzu doirasida bo‘lishi lozim);
- Biror nutq mavzusini tasvirlash (Masalan: Sayohat qilgan davlating haqida so‘zlab ber);
- O‘qilgan matnni yangi so‘zlar ishtirokida gapirib berish;
- Tinglangan matnning mazmunini bayon qilib berish;
- Tomosha qilingan videoni so‘zlab berish. Agar film so‘zsiz bo‘lsa ( فيلم صامت), o‘quvchini mushohadaga undash va film zamirida yotgan ma‘no haqidagi fikrlarini so‘rash mumkin.

Sanab o‘tilgan metodlarni o‘rta va yuqori bosqich o‘rganuvchilariga nisbatan tatbiq etish tavsiya etiladi.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash lozimki, til o‘rganishda uning lug‘at boyligi va imkoniyatlari bilan yaqindan tanishish va puxta o‘zlashtirish eng zaruriy talablardan hisoblanadi. Shu sababli chet tili xususan, arab tili o‘qituvchilariga bu ishga mas‘uliyat bilan yondashish, leksik materialni taqdim etish va mashq qildirishda turli metodlardan

foydalanish tavsiya etiladi. Lugʻat ustida ishlash jarayoni, oʻz navbatida, boshqa mahoratlar, jumladan, eshitish, oʻqish, yozish va gapirish mahoratlari bilan birgalikda olib borilishi lozim. Leksik birliklarni kontekst tarkibida taqdim etish hamda tavsiya etilgan retseptiv va reproduktiv mashqlar yordamida mustahkamlash eng samarali usullardan hisoblanadi. Shuningdek, mashqlarning taʼlimiy-tarbiyaviy maqsadlariga muvofiq holda ularni oʻyin tarzida olib borish til oʻrganuvchilarida yangi bilimlarni oʻzlashtirish va namoyish qilishga boʻlgan ragʻbatni kuchaytiradi. Bu esa oʻquvchilarning nafaqat leksik koʻnikmalarni shakllantirishlari, balki tilning boshqa jihatlarini ham puxta oʻzlashtirishlariga ijobiy taʼsir oʻtkazadi.

### REFERENCES

1. J.Jalolov. Chet til oʻqitish metodikasi. – T., “Oʻqituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyushmasi, 2012.
2. Djumali Shabanov. Chet tilini oʻqitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent, 2009.
3. Alpino Susanto (2017). The teaching of vocabulary: a perspective. Journal KATA. Vol. 1. pp. 182-191.
4. <https://bridge.edu/>
5. <https://skyteach.ru/>

